


III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi


Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 16 548,3 mlrd. so‘mni yoki 2022 yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 15 605,2 mlrd. so‘mni (104,1 %), o‘rmon xo‘jaligi 681,3 mlrd. so‘mni (103,0 %), baliqchilik xo‘jaligi 261,9 mlrd. so‘mni (106,9 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasining ulushi 3,9 % ni tashkil qildi.




16 548,3
mlrd. so‘m



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (% da)



2023-yilning yanvar–dekabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 94,3 % dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 4,1 % o‘rmon xo‘jaligi, 1,6 % baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Amudaryo (3 114,5 mlrd. so‘m) va Beruniy (2 166,7 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Mo‘ynoq tumani (237,9 mlrd. so‘m) va Nukus shahrini (117,1 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ko‘rsatkichidan (104,1 %) yuqori o‘sish sur‘atlari Shumanay (114,7 %), Bo‘zatov (113,5 %), Taxtako‘pir (109,0 %), Qonliko‘l (107,6 %), Qo‘ng‘irot (105,2 %), Xo‘jayli (105,1 %), Amudaryo (104,7 %) va Kegeyli (104,6 %) tumanlarida kuzatildi, Nukus shaharda (101,6 %), To‘rtko‘l (101,6 %), Ellikqal‘a (101,2 %), Mo‘ynoq (100,7 %) va Qorao‘zak (100,2 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining o‘sish sur‘ati




Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2023-yilning yanvar–dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 15 349,3 mlrd. so‘mni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 7 148,4 mlrd. so‘mni (105,4 %), chorvachilik mahsulotlari 8 200,8 mlrd. so‘mni (102,7 %) tashkil qildi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

**46,6 %
Dehqonchilik
mahsulotlari**



**53,4 %
Chorvachilik
mahsulotlari**

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi

(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

Hosil yig‘imi. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 312,2 ming tonna don ekinlari ishlab chiqarildi.

Bundan tashqari barcha toifadagi xo‘jaliklarda 96,4 ming tonna kartoshka, (2022-yilga nisbatan 2,9 foizga ko‘p), 333,4 ming tonna sabzavot (4,5 foizga ko‘p) yig‘ib olindi, 183,5 ming tonna poliz ekinlari (5,8 foizga ko‘p), 67,2 ming tonna meva va rezavorlar (5,8 foizga ko‘p) va 11,6 ming tonna uzum (2,2 foizga) yetishtirildi.

2023-yilning yanvar-dekabrida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

	Fermer xo‘jaliklari		Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o‘shish sur‘ati, foizda	tonna	o‘shish sur‘ati, foizda	tonna	o‘shish sur‘ati, foizda
Jami don	246 864	98,4	33 210	104,1	32 159	109,4
Kartoshka	32 869	101,5	62 658	104,2	880	77,4
Sabzavotlar	131 559	103,8	192 796	104,4	9 011	117,7
Poliz	98 603	107,0	79 997	103,5	4 921	122,7
Mevalar va rezavorlar	29 815	107,5	27 277	103,8	10 090	106,5
Uzum	4 726	106,7	5 991	98,7	897	104,3




Dehqonchilik


2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 7 148,4 mlrd. so‘mni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 105,4 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 46,6 % ni tashkil qildi.

Donli ekinlar


Hajmi, ming tonna



O‘sish sur‘ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da




● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, tonna.




Sabzavotlar


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi,
% da



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 333,4 ming tonna sabzavotlar (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 57,8 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna




*Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi*

Kartoshka


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati, % da




*Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi,
% da*



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 96,4 ming tonna kartoshka (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka mahsuloti umumiy hajmidan 65,0 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.


- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo'yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna




Poliz


Hajmi, ming tonna



O‘sinh sur‘ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi,
% da





2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 183,5 ming tonna poliz (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 5,8 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Poliz mahsulotini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz mahsuloti umumiy hajmidan 53,7 foizi fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.

- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha poliz yetishtirish hajmi, tonna



Mevalar va rezavorlar




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da





2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 67,2 ming tonna mevalar va rezavorlar (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 5,8 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Mevalar va rezavorlar mahsulotini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, mevalar va rezavorlar mahsuloti umumiy hajmidan 44,4 foizi fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.

- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, tonna



Uzum




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi,
% da**



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 11,6 ming tonna uzum (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,2 % ko‘p) ishlab chiqarildi. Uzum mahsulotini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum mahsuloti umumiy hajmidan 51,6 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna



*Qishloq, o‘rmon va
baliqchilik xo‘jaligi*




Chorvachilik

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 8 200,8 mlrd. so‘mni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 53,4 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 123,8 ming tonna go‘sht (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,4 % ga ko‘p), 448,2 ming tonna sut (3,2 % ga ko‘p), 398,3 mln. dona tuxum (2,9 % ga ko‘p) va 11 597,2 tonna baliq (1,9 % ga ko‘p) ovlandi.




Go‘sh (tirik vaznda)


Hajmi, ming tonna



O‘shish sur‘ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning
xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi,
% da




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 123,8 ming tonna go‘sh (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,4 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sh ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sh ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,6 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha go‘sh (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, tonna



Sut




Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 448,2 ming tonna sut (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 91,5 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha ishlab chiqarilgan sut yetishtirish hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln.dona



O‘sish sur‘ati, % da




Ishlab chiqarilgan
mahsulotlarning xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi, % da



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 398,3 mln.dona tuxum (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,9 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 73,5 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha olingan tuxum yetishtirish hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, tonna



O‘sish sur‘ati, % da




*Ishlab chiqarilgan
mahsulotlarning xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi % da*




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 11 597,2 tonna (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 1,9 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 44,3 foizi fermer xo‘jaliklar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha ovlangan
baliq hajmi, tonna**




Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,0 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 92,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 1,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 15,1 % i fermer xo‘jaliklariga, 82,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 2,6 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonidan 26,6 % i fermer xo‘jaliklariga, 69,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 3,6 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 10,2 % i fermer xo‘jaliklariga, 75,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 14,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati, % da



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



2024-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:


- yirik shoxli qoramollarning umumiy soni 1 232,1 ming boshga yetdi.

- yirik shoxli qoramollar bosh soni 2023-yilning 1-yanvariga nisbatan 23,9 ming boshga (2,0 %) ko‘paydi.

- yirik shoxli qoramollar bosh sonining 92,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.


- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning bosh soni, ming bosh




Sigirlar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati, % da



Bosh sonining xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi, % da



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


2024-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- sigirlarning umumiy bosh soni 356,3 ming boshga yetdi.


- sigirlarning bosh soni 2023-yilning 1-yanvariga nisbatan 6,6 ming boshga (1,9 %) ko‘paydi.

- sigirlar bosh sonining 90,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha sigirlarning bosh soni, ming bosh



Qo‘y va echkilar



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 1 240,8 ming boshga yetdi.
- qo‘y va echkilarning bosh soni 2023-yilning 1-yanvariga nisbatan 26,9 ming boshga (2,2 %) ko‘paydi.
- qo‘y va echkilar bosh sonining 82,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha qo‘y va echkilarning bosh soni, ming bosh



Otlar



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- otlarning umumiy soni 28 034 boshga yetdi.
- otlar bosh soni 2023-yilning 1-yanvariga nisbatan 424 boshga (101,5 %) ko‘paydi.
- otlar bosh sonining 69,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha otlarning bosh soni, bosh



Parrandalar




Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



2024-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- parrandalarning umumiy soni 5 271,2 ming boshga yetdi.
- parrandalar bosh soni 2023-yilning 1-yanvariga nisbatan 74,4 ming boshga (1,4 %) ko‘paydi.
- parrandalar bosh sonining 75,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha parrandalarning bosh soni, ming bosh



STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo‘jaliklari, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik mahsuloti – hisobot davrida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko‘p yillik yosh ko‘chatlarni o‘stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan yetishtirish qiymatlarining o‘zgarishi yig‘indisidir.

Chorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o‘stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirish qiymatlarini o‘z ichiga oladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

Ovchilik – ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko‘rsatish shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko‘paytirish va davolash xarajatlari hisobga olinadi.

O‘rmon xo‘jaligi – o‘rmon va o‘rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. O‘rmon xo‘jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o‘rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong‘inga qarshi dasturlarni ishlab chiqarish kiradi. O‘rmon xo‘jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag‘ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko‘chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o‘svuchi qo‘ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong‘oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

Baliqchilik xo‘jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohasining mahsuloti va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko‘paytirish va yaxshilashni o‘z ichiga oladi.

Qishloq xo‘jaligi ekinlarining yig‘ilgan yalpi hosili qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, fermer xo‘jaliklari, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida asosiy va takroriy, bog‘larning qator oralaridagi qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yig‘ib olingan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi.

Fermer xo‘jaliklari – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida ta‘qiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari – oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a‘zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a‘zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo‘jalik toifalari bo‘yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o‘z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo‘y va echkilar, cho‘chqalar va h.k.)

Go‘sht yetishtirish – so‘yish uchun sotilgan hamda o‘z xo‘jaligida so‘yilgan barcha turdagi qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o‘z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog‘ib olingan sut va og‘iz sutini qo‘shgan holda, haqiqatda sog‘ib olingan sigir, echki, qo‘y, biya va tuya sultari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi yetishtirishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo‘ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o‘z ichiga oladi.

Jun yetishtirish – xo‘jalikning ichki ehtiyojlariga sarflangani hamda junni saqlash va tashish jarayonida yo‘qotilganini qo‘shgan holda, qo‘y, echki, tualardan haqiqatda qirqib olingan natura vazndagi (qirqib olingandan keyingi vaznda) barcha junlarni o‘z ichiga oladi, bunga tullash juni, echki tiviti hamda takroriy qirqib olingan junlar ham qo‘shiladi.